



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

RAQAMLI PLATFORMALARDA XIZMAT KO'RSATISH XUSUSIYATI VA FUQAROLIK-HUQUQIY ASOSLARI

Shukurova Ozoda Odil qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi fakulteti magistranti

Raqamli platformalarda xizmat ko'rsatish xususiyatini o'rganish fuqarolik huquqidagi ko'plab tushunchalar bilan bizni bog'laydi. Jumladan, shartnoma huquqi, intellektual mulk huquqi kabi yo'nalishlar o'rganiladi. O'zbekistonda raqamli sohani tartibga solish Yevropa standartlariga bir qadam yaqinlashmoqda. 2025-yil 12-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan jamoatchilik bilan maslahatlashish uchun onlayn platformalar to'g'risidagi nizom loyihasi taklif etildi. Loyiha 2025-yil 7-may kuni parlament qo'mitasida ham muhokama qilingan, biroq hali parlament o'qishiga chiqmagan. Loyiha Yevropa Ittifoqining raqamli xizmatlar to'g'risidagi qonuni va Buyuk Britaniyaning Onlayn xavfsizligi to'g'risidagi 2023 qonuniga o'xshash ayrim elementlarni o'z ichiga oladi.¹ Globallashuv davridagi raqamli o'zgarishlar qonunchilikni ularga moslashishga majbur qiladi.

Raqamli xizmat ko'rsatish shartnoma huquqi bilan bevosita bog'langan. Raqamli platformalarda fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzishning xususiytigan e'tibor qaratishdan oldin, "shartnoma huquqi" tushunchasini o'rganamiz. Boylik va boshqa qiymatlarni qayta taqsimlash, xizmatlar ko'rsatish va ayrim huquqlarni topshirish bilan bog'liq munosabatlar "shartnoma huquqi" deb nomlanuvchi huquqiy qoidalar to'plami orqali tartibga solinadi. Wang Liming shartnoma huquqiga keng talqinda yondashib, uni "moddiy boylik yaratishni rag'batlantiruvchi huquqiy institut" deb ta'riflaydi.² G'arb yuristlaridan R. Pound

¹ <https://www.dentons.com/en/insights/articles/2025/may/14/uzbekistan-digital-platforms-regulation>

² Van Fleet and other v. Trion Worlds, Inc. (2016) C 15-04721 WHA (N.D. Cal. Jan. 12, 2016)



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

esa “tijorat davrida boylik asosan va’dalar orqali yaratiladi” deb qayd etadi.³ Demak, bir so’z bilan shartnoma huquqini qonuniylashtirilgan va’da desak bo’ladi. Raqamli platformalarda taraflar o’rtasidagi munosabatlar ham bevosita shartnoma huquqi orqali tartibga solinadi.

2020-yildagi COVID-19 pandemiyasidan keyin bozor iqtisodiyotiga sun’iy intellekt va uni natijasida “aqlli boshqaruv” kirib keldi. Natijada, virtual makon yaqin o’n yillik rivojlanishni birdaniga qamrab oldi, harakatlar tezlashdi. O’z navbatida bu o’zgarishlar xizmat ko’rsatuvchilarga mahsulotlarni dastlabki katta sarmoyasiz kiritish va keng bozorni qamrab olish, foydalanuvchilarning esa tanlov imkoniyatini kengaytirdi. Raqamli platformalar faollashgani sayin ularni fuqarolik-huquqiy tartibga solish dolzarb masalaga aylandi.

Statistika ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo’lsak, Xalqaro hisob-kitoblarga ko’ra 2020 yilda virtual mol-mulk bozorining hajmi 12,56 milliard dollarni tashkil etdi. Tadqiqotchilarning fikricha, virtual reallik texnologiyalari jahon bozorida yiliga 37,66 foizga o’sadi va 2026 yilga kelib uning hajmi 85,47 milliard dollarni tashkil etadi. Geografik jihatdan tahlil qilsak AQShda 2017-yilda raqamli mulk uchun barcha xarajatlar 4,3 milliard dollarni tashkil qilgan bo’lsa, ushbu ko’rsatkich; Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (Yaponiyasiz) uchun 2,6 milliard dollar va G’arbiy Evropa uchun 2,5 milliard dollarga yaqinni tashkil qilgan.⁴

Raqamli platformalarda xizmat ko’rsatish zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan bo’lib, bu xizmatlar texnologiyaga asoslanganligi, masofadan turib amalga oshirilishi va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali boshqarilishi bilan ajralib turadi. Ushbu xizmatlar ko’pincha inson aralashuvisiz amalga oshiriladi, foydalanuvchi tajribasiga asoslangan algoritmik yechimlar, chatbotlar va avtomatik tizimlar orqali tezkorlik bilan ko’rsatiladi. Raqamli xizmatlarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning transmilliy xarakterga ega bo’lishidir, ya’ni ular geografik chegaralardan qat’i nazar, dunyoning istalgan nuqtasidagi foydalanuvchiga yetkazilishi mumkin. Bu esa ularni ko’plab yurisdiksiyalarga

³ Atiyah, P. (1980) The Concept of Contract Law. Trans. from English by Chen Chzhenkan. Pekin: Law Press. [Атья П. С. Концепция договорного права / Пер. с англ. Чэн Чжэнкан. Пекин: Law Press, 1980.]

⁴ <https://www.tadviser.ru>



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

bog'liq huquqiy muammolarga duch keltiradi. Bunday platformalarda xizmat ko'rsatish ko'pincha foydalanuvchi shartnomasiga, ya'ni elektron tarzda qabul qilingan shartlarga asoslanadi. Foydalanuvchi ushbu shartlarga rozilik bildirgach, xizmatdan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Raqamli platformalar xizmatlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari asosida ishlaydi, bu esa maxfiylik va axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini dolzarb qiladi. Ko'plab raqamli xizmatlar intellektual mulk obyektlariga asoslangan bo'lib, dasturiy ta'minot, dizayn va kontent mualliflik huquqi bilan himoyalangani. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar orqali ko'rsatiladigan tijorat faoliyati ham elektron savdo va elektron to'lov tizimlariga asoslanadi. Bu xizmatlarning xavfsiz, ishonchli va qonuniy asosda ishlashini ta'minlash huquqiy tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Raqamli platformalarda asosan, mulkni egallab olishga qaratilgan shartnomalar tuzilgan. Biroq, hozirgi davrda raqamli platformalarda mulk ijarasi shartnomasi ham asosiy o'rinni egallaydi. Atrofimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'chalarda mototsikllar yoki skuterlarni ko'rishimiz mumkin. Ularga onlayn ravishda to'lov qilingandan keyin ijaraga foydalanishimiz mumkin. Bunda ham mulk egasi va ijaraga oluvchi shaxs o'rtasida onlayn mulk ijarasi shartnomasi tuzilmoqda. Yandex mobil ilovasini ham misol qilishimiz mumkin. Haydovchilar o'z avtomobilini Yandexga ijaraga berib, raqamli platformada foydalanuvchilarga onlayn xizmat ko'rsatishi mumkin. Avtomobilni qisqa muddatga ijaraga olish esa karsharing deb yuritiladi.⁵

Xulosa qiladigan bo'lsak, raqamli platformalarda xizmat ko'rsatish zamonaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlarning muhim yo'nalishiga aylangan. Ular masofaviylik, avtomatlashtirish va transmilliylik kabi xususiyatlarga ega bo'lib, shartnoma huquqi, intellektual mulk va iste'molchi huquqlari bilan uzviy bog'liq. O'zbekistonda bu sohani tartibga solish yo'lida muhim qadamlar qo'yilmoqda, biroq raqamli shartnomalarning huquqiy maqomi, karsharing va onlayn ijara xizmatlari bo'yicha aniq va kompleks qonunchilikka ehtiyoj mavjud. Shuning

⁵ Turitsyn, D.A. Digital contract in the civil law system. – M.: HELRI, 2022. – 78-p.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

uchun, ushbu sohada huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli muhitga moslashtirish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. <https://www.dentons.com/en/insights/articles/2025/may/14/uzbekistan-digital-platforms-regulation>
2. Van Fleet and other v. Trion Worlds, Inc. (2016) C 15-04721 WHA (N.D. Cal. Jan. 12, 2016)
3. Atiyah, P. (1980) The Concept of Contract Law. Trans. from English by Chen Chzhenkan. Pekin: Law Press. [Атья П. С. Концепция договорного права / Пер. с англ. Чэн Чжэнкан. Пекин: Law Press, 1980.]
4. <https://www.tadviser.ru>
5. Turitsyn, D.A. Digital contract in the civil law system. – M.: HELRI, 2022. – 78-p.